

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA ISTIQBOLLI YOSH
KADRLARNI SHAKLLANTIRISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH
DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI SAMARALI ISLOH ETISHNING
GARVIDIR**

Raxmanova Gulnoza Annakulovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil
izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish
agentligi inspektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmati tizimida istiqbolli yosh kadrlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘rganiladi. Davlat boshqaruvi tizimini samarali isloh etishda yosh mutaxassislarning rolini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Maqolada davlat xizmatining kadrlar siyosati, yoshlarga oid davlat dasturlari va xalqaro tajriba o‘rganilib, istiqbolli kadrlarni shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, yosh kadrlarning malakasini oshirishda raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va ta’lim-ilmiy hamkorlikning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy yechimlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, istiqbolli yosh kadrlar, davlat boshqaruvi, kadrlar siyosati, islohotlar, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, malaka oshirish, kadrlar tayyorlash, strategiya.

FORMATION AND SUPPORT OF PROMISING YOUNG PERSONNEL IN THE STATE CIVIL SERVICE IS A GUARANTEE OF EFFECTIVE REFORM OF THE STATE ADMINISTRATION SYSTEM

Rakhmanova Gulnoza Annakulovna

Independent researcher of the Tashkent State Pedagogical University named
after Nizami

Inspector of the Agency for the Development of the Civil Service under the
President of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article examines the issues of forming and supporting promising young personnel in the civil service system. The mechanisms for increasing the role of young specialists in the effective reform of the public administration system, developing their professional competence, and training competitive personnel are analyzed.

The article studies the personnel policy of the public service, state programs for youth, and international experience, and develops proposals and recommendations for the formation of promising personnel. Special attention is also paid to the importance of digital technologies, innovative approaches, and educational and scientific cooperation in improving the skills of young personnel. The results of the study offer scientific and practical solutions aimed at improving personnel policy in the public administration system.

Keywords: Public civil service, promising young personnel, public administration, personnel policy, reforms, digital technologies, innovation, professional development, personnel training, strategy.

Kirish

Davlat fuqarolik xizmati – davlat boshqaruvi tizimining asosiy qismlaridan biri boʻlib, mamlakatning ijro etuvchi qudratini taʼminlaydi. Davlat fuqarolik

xizmatining samaradorligi ko‘p hollarda yosh kadrlar tayyorlash va ularni ishga jalb etish bilan belgilanadi. Shunda muhim vazifa esa, istiqbolli yosh kadrlarni shakllantirish va ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdir.

Hozirgi zamonda davlat boshqaruvi tizimini samarali isloh qilish, yangilanish va rivojlanish talablari yosh mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalariga bog‘liq. Shu bois, istiqbolli yosh kadrlarning tayyorgarligi, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish va ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan dasturlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – davlat fuqarolik xizmatida istiqbolli yosh kadrlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy va ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Buning uchun yosh mutaxassislarni tayyorlashning mavjud tizimi tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar o‘rganiladi.

Asosiy qism

Prezident Shavkat Mirziyoevning "Yoshlar — bu mamlakatimizning kelajagi, ularning bilim va malakasi mamlakatimizning muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatida istiqbolli yosh kadrlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash, bu, shubhasiz, davlat boshqaruvi tizimini samarali isloh etishning garovi va muhimi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat xizmatining mukammal va samarali ishlashi, adolatli qarorlarni qabul qilish va insonlarning manfaatlarini ta’minlash faqatgina malakali, bilimli va yoshlardan iborat kadrlar orqali amalga oshirilishi mumkin." degan fikrlari yoshlarga bo‘lgan katta e’tibori hisoblanadi [2].

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini samarali isloh etish, uni zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlash jamiyat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, yosh kadrlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash nafaqat davlat boshqaruvining barqarorligi, balki uning innovatsion salohiyatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Har qanday davlat xizmatining samaradorligi va natijadorligi davlat xizmatchilarining faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Professional va salohiyatli davlat xizmatchilarini shakllantirish bo‘yicha samarali tizim o‘rnatilmas ekan,

samaradorlik va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatini ta‘minlab bo‘lmaydi. Shuning uchun bugungi kunda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar orasidan iste‘dodlarni aniqlab ularni malakasini oshirish, zaruriy ko‘nikmalar bilan boyitish va kelgusida istiqbolini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Istiqbolli yosh mutaxassislarni jalb qilish, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish, bugungi globallashuv sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning intellektual salohiyatiga, ularning ilmiy va amaliy tayyorgarligiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6260-Farmonining 5-bandida Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga qaratilgan. Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarida o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi [3].

Davlat organlari, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro‘yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislarning lavozim maoshiga Davlat byudjeti hisobidan saqlanadigan shtat birliklari uchun Davlat byudjeti mablag‘lari hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan saqlanadigan shtat birliklari uchun tegishli tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha ustamalar to‘lab borish tartibi joriy etilgan. Hozirgi kunda PF-6260ga ko‘ra, yosh mutaxassislarga ustama to‘lash, ularni o‘z sohalarida faol ishlashga va ko‘proq tajriba orttirishga rag‘batlantirish uchun 400 ga yaqin yosh mutaxassisga ustamalar to‘lab borilmoqda. Ustamalar maoshlarga qo‘shimcha ravishda to‘lanadi, bu yosh

mutaxassislarga o'zlarining kasbiy salohiyatlarini rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu qarorlarning maqsadi – yoshlarning ishga o'rganishini yoki yangi kasbda yuksalishini ta'minlash, shuningdek, ularni mamlakatning turli sohalarida ishlashga jalb qilishdir [3].

«El yurt umidi» dasturi yoshlarga e'tibor berish va ularning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi. Bu dasturning asosiy maqsadi yoshlar orasida ta'lim va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni o'zgartirishlar va innovatsiyalarga tayyorlash, shuningdek, davlat va xususiy sektorda ahamiyatli rol o'ynashga rag'batlantirishdir [4].

«El yurt umidi» yoshlarga qat'iy moliyaviy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ixtisoslashgan yosh mutaxassislarni faoliyatga jalb qilish orqali ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Dastur doirasida yoshlarga ta'lim va ishlash imkoniyatlari taqdim etilib, ularga professional ta'lim va amaliyotning birgalikda o'tkazilishi ta'minlanadi.

Bu dastur yoshlarning ijtimoiy faoliyatiga qo'shgan hissasi, ularning muammolarini hal qilish va hayotiy talablarga moslashish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan [4].

2024 yilda O'zbekistonda xorijiy davlatlarda bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun «El-yurt umidi» jamg'armasi tomonidan 500 o'rin ajratilgan:

Bakalavriat: 100 o'rin, Magistratura: 250 o'rin va Doktorantura: 150 o'rin. Bu tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar maxsus imtihonlardan o'tgan va tanlangan. Masalan 2024 yilda 411 nafar stipendiatlarga xorijda o'qish uchun to'rt tamonlama shartnomalar tuzildi. «El-yurt umidi» jamg'armasi stipendiatlari orasida 263 nafar erkak va 148 nafar ayollar yuborildi.

Shuningdek, yosh kadrlar siyosatini samarali tashkil etish ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, rahbarlikka tayyorlash hamda tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish doirasida yoshlarga oid bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Xususan, yoshlarning davlat xizmatlarida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida "Yoshlar akademiyasi", "Prezident kadrlar zaxirasi" kabi dasturlar yo'lga qo'yildi. Bu kabi tashabbuslar istiqbolli yoshlarning salohiyatini aniqlash, ularni davlat boshqaruviga jalb etish va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilari uchun zamonaviy ta'lim platformalarini joriy etish, xorijiy tajriba asosida malaka oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Jumladan, **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi** tomonidan kadrlarni tanlash va tayyorlashda shaffoflikni ta'minlash hamda yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Istiqbolli yosh mutaxassislarni jalb qilish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish, bugungi globallashtirish sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning intellektual salohiyatiga, ularning ilmiy va amaliy tayyorgarligiga bog'liqdir.

Mazkur yo'nalish bo'yicha davlatimiz Rahbarining bir qator farmonlari va topshiriqlari mavjud. Mazkur normativ hujjatlar davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan yosh istiqbolli kadrlarni shakllantirish bo'yicha tizimni joriy etish va ularni muntazam ijtimoiy qo'llab quvvatlashga qaratilgan.

Bugungi kunda yosh istiqbolli kadrlarni shakllantirish sohasida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan O'zbekistonda ro'yhatdan o'tgan yoshlarga xorijda o'qish uchun stipendiya ajratadigan xorijiy grant tashkilotlari bilan hamkorlik faoliyati yo'lga qo'yildi. Hamkorlik faoliyatiga ko'ra Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi grant jarayonlari bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari xodimlari orasida xorijda malaka oshirish ahamiyati to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borishi, grant jarayonlariga iste'dodli davlat xizmatchilarini jalb etish, ular orasidan eng munosiblarini tanlab olish va kelgusida ularning istiqbolini ta'minlash bilan bog'liq choralarini amalga oshirishi belgilandi.

Xalqaro tajribada yosh kadrlarni shakllantirish davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Janubiy Koreya KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) dasturi orqali rivojlanayotgan davlatlardagi iqtidorli yoshlarni tanlab, ularning bilimi va malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim va stajirovka dasturlarini amalga oshirmoqda. KOICA doirasida davlat boshqaruvi sohasiga oid qator kurslar, shuningdek, rahbar kadrlar uchun maxsus tayyorlov dasturlari o'tkaziladi. Ushbu dasturlar yosh mutaxassislarning strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va innovatsiyaviy yondashuvlarni o'zlashtirishni maqsad qiladi [5].

Shuningdek, KOICA dasturi Janubiy Koreyaning raqamli transformatsiya va innovatsiyalar sohasidagi tajribasini tarqatishga yo'naltirilgan bo'lib, yosh mutaxassislarga ushbu bilimlarni davlat boshqaruvida qo'llash imkoniyatini beradi. O'zbekistonda ham KOICA loyihalari doirasida davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, maxsus seminarlar va stajirovkalar tashkil etilib, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekistonda yosh kadrlarni shakllantirish jarayonida KOICA kabi xalqaro dasturlarning ahamiyati ortib bormoqda, chunki bu kabi tashabbuslar nafaqat ta'lim va amaliyotni birlashtiradi, balki davlat boshqaruvini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shu bilan bir qatorda, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ham davlat boshqaruvida yosh mutaxassislarni shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyatga ega. JICA dasturlari Yaponiyaning samarali boshqaruv tizimi, texnologiyalari va innovatsiyaviy yechimlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Yosh rahbarlar uchun maxsus tayyorlov kurslari, stajirovkalar va tadqiqot loyihalari tashkil etilib, davlat xizmatchilariga yetakchilik, strategiya ishlab chiqish va islohotlarni amalga oshirish bo'yicha zamonaviy ko'nikmalar beriladi.

O'zbekistonda JICA loyihalari doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Yosh kadrlar Yaponiyada o'qish va malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularga

innovatsiyaviy yondashuvlarni o'z ichiga olgan tajribani O'zbekistonning boshqaruv tizimida qo'llashga imkon beradi.

KOICA va JICA kabi xalqaro hamkorlik dasturlari nafaqat yosh kadrlarning salohiyatini oshirishga, balki davlat boshqaruvida xalqaro standartlarni joriy etishga ham xizmat qilmoqda [6].

Xalqaro tajribada yosh kadrlarni shakllantirish davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Janubiy Koreya "Yosh rahbarlar dasturi" orqali yuqori malakali kadrlarni davlat boshqaruviga jalb qilish va ularning malakasini oshirishga qaratilgan maxsus tizim joriy etgan. Singapurda "Davlat xizmati stipendiyasi" dasturi orqali iqtidorli yoshlar xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitiladi va davlat boshqaruvida yetakchi lavozimlarga tayyorlanadi [7].

Yevropa Ittifoqi davlatlarida yosh kadrlarni shakllantirish jarayonida hamkorlik va tajriba almashinuviga katta ahamiyat qaratiladi. Xususan, "Evropa Yoshlar Qo'mitasi" doirasida yosh mutaxassislar uchun amaliy mashg'ulotlar, davlat xizmatiga tayyorlov kurslari va stajirovka dasturlari tashkil etiladi.

O'zbekistonda ham yosh kadrlarni shakllantirishda xalqaro tajriba o'rganilib, davlat xizmatini rivojlantirish tizimiga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Prezident kadrlar zaxirasi va turli yoshlar dasturlari doirasida iqtidorli mutaxassislarni tayyorlash va ularni strategik lavozimlarga tayyorlash bo'yicha ish olib borilmoqda.

Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 avgustdagi PF-6260-son Farmoni bilan xorijning eng nufuzli 500 ta universitetlarida ta'lim olgan yosh davlat xizmatchilariga asosiy oylik maoshiga qo'shimcha ravishda ustamalar belgilanishi davlat xizmatchilarini o'z professional ko'nikma va kasbiy bilimlarini xorijning eng nufuzli ta'lim muassasalarida oshirishiga motivatsiyalaydi. Bu esa o'z navbatida davlat organlari va tashkilotlarining ushbu istiqbolli yosh davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatidan unumli va samarali foydalanishiga turtki bo'ladi.

Xususan, yosh kadrlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash nafaqat davlat boshqaruvining barqarorligi, balki uning innovatsion salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish davlat boshqaruvinini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda yosh mutaxassislarining ijodiy yondoshuvi va texnologik salohiyati katta ahamiyatga ega. Zamonaviy yoshlar raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirish sohalarida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, bu ularni davlat boshqaruvining yetakchi kuchlaridan biriga aylantirmoqda.

O'zbekistonda ham yoshlarning innovatsiyaviy salohiyatidan keng foydalanishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlarini onlayn formatga o'tkazish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish kabi islohotlarda yosh kadrlar faol ishtirok etmoqda. Yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar texnoparklari", innovatsiya markazlari va startap dasturlari tashkil etildi.

Shuningdek, yosh mutaxassislar innovatsiyaviy loyihalarni amalga oshirishdagi yetakchi kuchga aylanib, davlat boshqaruvida samaradorlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ular davlatning zamonaviy va raqobatbardosh tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar [8].

Shu bilan, yosh kadrlarni shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlash faqat zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishning o'zi emas, balki davlatning strategik rivoji uchun ham muhim bosqichdir.

Xulosa

Hozirda davlat boshqaruvi tizimini samarali isloh etish, yosh kadrlarni shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlash davlat rivoji uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Yosh mutaxassislar davlat xizmatlariga jalb qilingani sari, ularning

innovatsion fikrlash qobiliyati, raqamli texnologiyalarga bog'liq bilim va ko'nikmalari davlat boshqaruvi tizimini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yoshlarning salohiyatini oshirish va ularga davlat xizmatlarida yuqori lavozimlar ishlatish uchun xalqaro tajriba va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dasturlar muhim o'rin tutadi. Koreya va Yaponiya kabi davlatlardan kelgan KOICA va JICA dasturlari orqali yosh mutaxassislariga zamonaviy boshqaruv va innovatsiyaviy tajriba orqali ma'lumotlar beriladi. Ushbu xalqaro dasturlar yosh kadrlarning professional taraqqiyoti va davlat boshqaruvi tizimining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yosh kadrlarni shakllantirish va ularning davlat xizmatlariga jalb etilishi davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, zamonaviylashtirish va mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda. Bularning barchasi yosh avlodning intellektual salohiyatini ishga solish va ularga yuqori va samarali lavozimlarda ishlash imkoniyatlari yaratish orqali davlatning strategik rivoji uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning "Davlat xizmati va kadrlar siyosati: muammolar va yechimlar" mavzusidagi ma'ruza. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati, 2023.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning Yoshlar forumi va Davlat fuqarolik xizmati bo'yicha ma'ruzalarda (2017 yil)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 dekabrda PF-6260 «Davlat boshqaruvi va kadrlar siyosati sohasida amalga oshiriladigan islohotlar to'g'risida»gi farmoyishi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 dekabrda PF-5867-son Farmoni
5. KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) rasmiy veb-sayti: www.koica.go.kr.

6. JICA (Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi) rasmiy veb sayti: www.jica.go.jp.
7. Urazov, B. "Koreya tajribasida yosh kadrlarni shakllantirish." Davlat boshqaruvi va huquq ilmiy jurnali, 2021.
8. Axmedova, F. "Davlat boshqaruvi tizimi va yosh kadrlarning ahamiyati." Ijtimoiy fanlar jurnali. 2022.